

U.N.XODJAMQULOV

ILMIY TADQIQOT METODOLOGIYASI

DARSLIK



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

U.N.XODJAMQULOV

**ILMIY TADQIQOT
METODOLOGIYASI**

Darslik

«Osiyo tur»
Toshkent – 2024

UO'K 001.89
KBK 72
X 22

Mazkur darslikda ilmiy tadqiqot mavzusini asoslash, mavzuga oid bosma va elektron ma'lumotlar tizimidan foydalanish, tadqiqotning vazifalarini shakllantirish, tadqiqot materiallari bilan ishlash, tadqiqotni zarur ko'rgazmali ilovalar bilan ta'minlash, olingan ma'lumotlarni tahlil qilish va umumlashtirish, tadqiqot natijalarini aprotatsiya qilish hamda taqdim etish usullari yoritilgan. Qo'llanma O'zbekiston Respublikasi oliy o'quv yurtlari 70110102 – Pedagogika va psixologiya mutaxassisligi magistrilariga mo'ljallangan. Shuningdek, qo'llanmadan ta'limning barcha sohasidagi talabalar, magistrilar, doktorantlar, shuningdek oliy o'quv yurtlarining professor-o'qituvchilari o'z malakasini oshirishda foydalanishlari mumkin.

Mas'ul muharrir:
pedagogika fanlari doktori,
professor **D.O.Ximmataliyev**

Taqrizchilar:
pedagogika fanlari doktori,
professor **J.E.Usarov**
pedagogika fanlari doktori,
dotsent **F.R.No'raqulov**

UO'K 001.89
KBK 72

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024 yil 7-maydagi 149-sonli buyrug'i bilan nashrga ruxsat berilgan.

ISBN 978-9910-782-19-3

KIRISH

Pedagogika - bu fundamental va amaliy fan. Fundamental va amaliy tadqiqotlar, avvalo ustuvor maqsadlarni o'zida ifoda etishi bilan farqlanadi. Fundamental tadqiqotlarning strategik maqsadi - nazariya va konsepsiyalarni yaratish, qonun va qonuniyatlarni aniqlash, real obyektlarning ahamiyati va xususiyatlarini tizimlashtirishdan iborat. Fundamental tadqiqotlar jarayonida obyektlarning nazariy modellari yaratiladi. Fundamental tadqiqotlar nafaqat ontologik, prognostik, balki metodologik va evristik funksiyalarni ham bajaradi, ya'ni muammoning tadqiq etish lozim bo'lgan yangi qirralarini ochib beradi hamda amaliy tadqiqotlarning evristik strategiyalari va texnologiyalarini ishlab chiqish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Fan ilmiy bilimlar va ilmiy faoliyat tizimi sifatida natijasi esa, nazariy va amaliy turdagi yangi ilmiy bilimlarda o'z ifodasini topadi. Umuman olganda, ilmiy bilim uchun haqiqat va yangining mavjudligi eng asosiy qadriyatdir. Ilm madaniyatning komponenti sifatida ijtimoiy-madaniy nuqtai nazardan asoslangan, muayyan tarixiy va madaniy kontekst, aksiologik doirada rivojlanadi; ikkinchi tomondan esa - ilm madaniyatni rivojlantirish uchun asos vazifasini bajaradi.

Axborotlar globallashuvi sharoitida fanning turli ma'lumotlar bilan boyib borishi, axborotlarni tahlil va talqin qilishga erkinlikning yuqori darajada berilishi boshqa fanlar singari pedagogika faniga turli nuqtai nazardan, rakursdan qarash tuyg'usini qaror toptirmoqda. Hatto so'nggi yillarda mazkur fanga uning tabiatiga mos kelmaydigan tushuncha, yondashuvlarni zo'rma-zo'raki singdirishga urinishlar ham ko'zga tashlanadi. Pedagogika fanining fundamental xususiyatini saqlab qolishning asosiy yo'li - uning metodologiyasini aniqlashtirish va to'g'ri tushuntirib berishdan iboratdir.

Ilmiy tadqiqotlar metodologiyasiga doir xorijiy tillarda bir qancha darslik va o'quv qo'llanmalar, monografiyalar mavjud. Biroq respublikamiz oliy ta'lim muassasalarining magistratura bosqichida mazkur fan bir necha yillardan buyon o'qitilishiga qaramasdan, ilmiy tadqiqotlar metodologiyasini yaxlit o'zida aks ettiruvchi darslik mavjud emas. Ana shunday zaruriyatdan kelib chiqib, ijodiy guruh tomonidan mazkur darslik yaratildi. O'quv

qo'llanma matnini tushunishda qiyinchiliklarga duch kelishingiz, tabiiy. Buning uchun falsafiy va mantiqiy tafakkurga tayanishingiz lozimligini eslatib o'tmoqchimiz. Ilmiy tadqiqotlar metodologiyasini yaxshi bilish nafaqat ilmiy izlanishlar olib borish, balki pedagogika fani mohiyatini ham to'g'ri tushunishga Sizga yaqindan yordam berishi, shubhasiz!

I-MAVZU: PEDAGOGIK TADQIQOTNING MAZMUN VA MOHIYATI

1.1. Pedagogik tadqiqot kategoriya sifatida. Pedagogik tadqiqot metodologiyasining mohiyati. Metodologiyaning pedagogika uchun muhimligi, bir tomondan, fan rivojining umumiy xususiyatlari bilan, boshqa tomondan, pedagogik ilmlar rivojining o'ziga xosligi bilan, uchunchi tomondan, bilish bosqichlarining murakkabligi bilan belgilanadi. U o'zining rivojlanishi davomida boyib boradi, tajriba orttiradi, ob'ektiv voqelik hodisasi sifatid tarbiyaning muhim qonuniyatlari va tamoyillarini ochib beradi. Pedagogik tadqiqotlarning zamonaviy yo'nalishlari dolzarb va amaliy jihatdan muhim masalalarning yangicha yechimlarini izlab topish jarayonining tezlashuvi, ayni vaqtda istiqbolli muammolarning nufuzi oshib borayotganligi bilan tavsiflanmoqda, bunda ikki yo'nalishdagi tadqiqotlar alohida ko'zga tashlanadi:

1. Umumiy xarakterdagi yirik tadqiqotlarni talab etadigan keng doiradagi muammoni o'rganish

2. Murakkab pedagogik jarayonlarni ichki, nozik qirralarini topishga imkon beradigan tor muammolar yechimiga qaratilgan chuqur detalli o'rganish.

Birinchil yo'nalish tarafdorlari pedagogik jarayonning barcha unsurlari o'zaro aloqada va ularni ajratish yaramaydi, degan dalilga tayanishadi, pedagogik tajribani yaxlit o'rganish zarurligiga urg'u berishadi. Biroq ular quyidagi holatni nazardan chetda qoldirishadi: pedagogik jarayon o'zining bor munosabatlari bilan olib qaralganda pedagogika fani ob'ekti hisoblanadi. Ikkinchi yo'nalish vakillari pedagogik jarayonning alohida unsurlari (metod, shakl va b.) o'rganishga urungan holda bir narsani unutishadiki, o'quv-tarbiyaviy ishlar tizimida yulib olingan hech bir vosita to'liq hisoblanmaydi. Bugungi kunning jiddiy metodologik muammosi – bu zamonaviy ta'limni pedagogik tadqiqotlarga oid ilmiy muammolarda ishonarli va samarali aks ettirishdir. Bajarilayotgan tadqiqotlarda uchraydigan umumiy kamchiliklar:

- Mavzularning dolzarb pedagogik muammolar echimiga qaratilmaganligi, ular yangi, kontseptual g'oyalarning yo'qligi

- Farazlarning isbot talab qilmaydigan holatda noaniq ifodalanishi

- Jiddiy xulosalarning yoʻqligi, ularning nazariy va amaliy jihatdan noaniqligi

- Shablonlik (bir qolipdalilik)

- Tavsiyalarni amaliyotda qoʻllash imkoniyatlari yoʻqligi va b. cheklaydigan asosiy omillar:

- Malakaning yetarli emasligi;

- Umrini yashab boʻlgan sobiq sovet pedagogikasi gʻochlaridan xalos boʻla olmaslik

- Tadqiqot metodlaridan toʻgʻri foydalan bilmaslik va b.

Zamonaviy pedagogik bilimlar sezilarli darajada shu kunga qadar tarkib topgan tushunchalarining anʻanaviy tizimi girdobidan chiqib ketadi. Bunday sharoitda pedagogika fanining oʻz predmeti, chegarasi va xarakteri, ilmiy bilimlarni egallash, ularni amaliyotda qoʻllash kabi masalalarni yangicha talqinda qoʻymoqda. Boshqacha qilib aytganda, metodologik muammolarni nomzodlik yoki doktorlik dissertatsiyasi darajasida tadqiq qilishga ehtiyoj tugʻilmoqda. Ular qatorida:

- Pedagogikada ilmiy fakt muammosi;

- Tadqiqot natijalarini amaliyotga tatbiq etish texnologiyasi;

- Oʻqitish tarkibi, tuzilmasi va funktsiyalarini ilmiy asoslash;

- Nazariya va amaliyot kabi fundamental tadqiqotlar ham oʻz yechimini kutyapti.

Tadqiqot taqdiri metodlariga bogʻliqligi sir emas. Pedagogik tadqiqotlar metodi agar pedagogik hodisalarning obʻektiv mohiyatini toʻgʻri ifodalasa, pedagogika predmetining oʻziga xosligiga javob bersa, shubhasiz, ilmiy deb eʼtirof etiladi. Shu jihatdan olib qaralganda, pedagogik tadqiqot metodlari uchun metodologik baho zarur boʻladi.

Pedagogik tadqiqotlarning samaradorligi tadqiqotlarning samaradorligi tadqiqotchining metodologik madaniyatiga toʻgʻri proporsionaldir. Shu boisdan bu tushuncha integral sifat koʻrsatkich hisoblanib, tadqiqotchidan oʻzida xususiy ilmiy faoliyatni tahlil qilish koʻnikmasini, maʼlum konsepsiya (nazariya)ni ilmiy asoslash va ijodiy qoʻllash qobiliyatini egallashni talab etadi. Bugun har bir pedagogik tadqiqot qoidaga koʻra, joriy etilgunga qadar ilmiy asoslanishi shart: dastlabki holat; tadqiqot mantiqi; kutilayotgan natijalar, ularga erishish metodlarini belgilash; isteʼmolchilar bilan

hamkorlik oʻrnatish; uni joriy etish shartlarni ishlab chiqish; iqtisodiy m anfaatdorlik va h.k.

Pedagogik tadqiqot ilmiy faoliyatning murakkab turi hisoblanib, u ishonchli qoʻllarda – metodologiyani chuqur oʻrgangan, ilmiy tadqiqot metodlari bilan qurollangan Shaxs tomonidan muvaffaqiyatli amalga oshirilishi mumkin. Olimning qiyofasi, ruhiyati va tiynati haqida maxsus adabiyotlarda batafsil yoritilgan, ayniqsa, uning quyidagi sifatlari alohida qayd etiladi; haqiqatga, nomaʼlumni bilishga jiddiy intilish; kuzatilayotgan hodisa va jarayonlarni tasniflash qobiliyati va kuzatuvchanlik; ilmiy tafakkurning analitik – sintetik jamlanmasi va b.

Tadqiqotchi tafakkurining xarakteri haqidagi savol birmuncha mulohazalidir. Bu murakkab jarayonni toʻliq tasvirlashga daʼvogarlik qilmagan holda jihatlariga eʼtiborni qaratamiz: Obʻektivlik qaralayotgan hodisa va jarayonlarning qandaydir begona, yot tadqiqot uchun muhim boʻlmagan tassurot va taʼsirlardan holi boʻlishni, narsa va hodisalarning oʻzaro aloqasini, undagi oʻzgarishlarni xolisona ifodalashni taʼminlaydi. Aniqlik tadqiqotning barcha muallajalari uchun tegishlidir: pedagogik hodisa va jarayonlarni kuzatish va qayd etish; fikrlar tahlili va umumlashmasi; turli manbalardan olingan ilmiy axborotlardan foydalanish va b. Tanqidiylik boshlangʻich maʼlumotlarni sogʻlom baholashni tajriba natijalarining haqqoniyligini taʼminlash bilan farazlar va nazariyalarni qurishdagi shubhasiz uzluksiz va qonuniy darajasi bilan, agar ular yangi faktlarga zid kelib, dalilarni toʻgʻri va chuqur tushuntira oladigan konsepsiya topilsa, ulardan voz kechish qobiliyati qobiliyati bilan tavsiflanadi. Muayyanlik va izchillik qabul qilingan atamalarning bir xilligida, tadqiqot mantiqiga amal qilishda, shart-sharoitlarni hisobga olishda, ilmiy apparat tushunchalarining bogʻliqligida namoyon boʻladi.

Tizimlilik oʻrganilayotgan hodisa va jarayonlarni biror belgilari asosida tasniflashga intilishda, tasavvurlar, tushunchalar va qonuniy aloqalarni oʻrnatish, kontsepsiyalarni, nazariyalarni shakllantirishda yuzaga chiqadi. Xullas, ilmiy tafakkur tadqiqotning boshlangʻich nuqtasi belgilashda obʻektivlikni, muayyanlikni, aniqlikni nozik, ehtiyotkorona chogʻishtirishni, haqiqatni bilish yoʻlining toʻgʻriligini, tajriba natijalarini, nazariy xulosalarni tanqidiy tekshirib koʻrishni va albatta, tizimlikni taqozo etadi.